

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING
TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA YANGILANISHINING HUQUQIY
JIXATLARI.**

Rafikova Muattar Ravshanovna

Bojxona instituti Umumhuquqiy

fanlar kafedrasи dotsenti,

bojxona xizmati podpolkovniki,

pedagogika fanlari bo'yicha

falsafa fanlari doktori(PhD)

Mamarajabov Fazliddin Abdurazzoq o'g'li

Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi

Davlat Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti,

1-kurs kursanti,

fazliddinmamarajabovxm@gmail.com

*"To 'la ishonch bilan aytish mumkinki, o'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda"*¹.

SH.M.Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu tezisda konstitutsianing kelib chiqishi va uning rivojlanish tarixi, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar va ularning ahamiyati,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligi munosabati bilan bayonoti. 2022-yil 7-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5665>

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish bosqichlari, konstitutsiyaviy tamoyillar va unga kiritilgan o'zgartirishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, konstitutsiyaviy komissiya, konstitutsiya loyihasi, konstitutsiyaviy tamoyillar, konstitutsiyaviy islohotlar.

Аннотация: В статье рассматриваются происхождение Конституции и история ее создания, изменения и законодательные положения, связанные с Конституцией, принципы создания Конституции Республики Узбекистан, конституционные процессы и переход к ней.

Ключевые слова: Конституция, конституционная комиссия, конституционные проекты, конституционные проекты, конституционные структуры.

Konstitutsiya – davlatning oliy kuchga ega asosiy qonunidir² U mamlakatning ijtimoiy va huquqiy, siyosiy hayotini tartibga soluvchi asosdir. Tarixda konstitutsiyalar davlatlarning rivojlanish bosqichlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarga javob sifatida shakllangan. Konstitutsyaning ilk shakllari Qadimgi Rim jamiyatida paydo bo'lgan. Aristotel singari faylasuflar jamiyat boshqaruvi uchun umumiy qoidalari belgilash g'oyasini ilgari surishgan. O'rta asrlarda Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobi Markaziy Osiyo va unga tutash g'arbiy hududlarda islam shariati qoidalari bilan bir qatorda jamiyat hayotiga kuchli ta'sir o'tkazgan "konstitutsiyaviy hujjat" hisoblangan.

"Konstitutsiya" atamasi Qadimgi Rimdayoq ma'lum bo'lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur "Tuzuklar"i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan.

Konstitutsiyani tarix bilan bo'g'lab o'rganadigan bo'lsak, birinchi yozma konstitutsiya 1787-yilda AQShda qabul qilingan. U davlat boshqaruvining demokratik tamoyillarini o'zida aks ettirib, boshqa davlatlar uchun namunaviy

² Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024. – 544 bet.

hujjatga aylangan. Keyinchalik, Fransiyada 1791-yilda qabul qilingan konstitutsiya inqilobiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelib, inson huquqlari va erkinliklarini qonuniy asosda belgilab berdi. XIX asrda esa ko'plab davlatlarda milliy konstitutsiyalar paydo bo'lib, ular ijtimoiy adolat, demokratizm va fuqarolik huquqlarini rivojlantirishga qaratildi.

Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G'arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.

Shu o'rinda Suveren O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va uning amal qilishi yo'lidagi 10 ta huquqiy qadamni bu boradagi eng muhim tarixiy voqealar sifatida sanab o'tish lozim. Zotan, Konstitutsiyani yaratish tarixi – bu mustaqillik uchun kurashning uzviy tarkibiy qismidir.

Mustaqillik e'lon qilinganidan so'ng, yangi davlatni boshqarish, xalq irodasini ifodalovchi qonuniy asoslarni yaratish ehtiyoji yuzaga keldi. Ana shunday sharoitda, 1990-yil 21-iyun kuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Komissiya ikki yildan ortiq faoliyat yuritib, xalqimizning tarixiy xotirasi, madaniy merosi, milliy urf-odatlari va zamonaviy jahon huquqiy tajribasiga tayangan holda Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqdi.

Mazkur loyiha 1992-yilning sentabrida birinchi marotaba matbuotda e'lon qilinib, umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Minglab fuqaro, huquqshunos, mutaxassislar va jamoatchilik vakillari o'z fikrlarini bildirib, komissiyaga 5000 dan ortiq taklif va izohlar yuborishdi. 1992-yil 21-noyabrda loyiha ikkinchi bor yangilangan ko'rinishda muhokamaga chiqarildi. Bu jarayon xalq ishtirokida Konstitutsiya tayyorlanganining yaqqol isboti bo'ldi.

Nihoyat, 1992-yil 8-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdagi sessiyasida Konstitutsiya moddama-modda ko'rib chiqilib, zarur o'zgartish va qo'shimchalar bilan bir ovozdan qabul qilindi.

Konstitutsiya 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo'lib, unda davlat boshqaruvi shakli, inson huquqlari, sud hokimiyati, saylov tizimi, davlat ramzları, iqtisodiy siyosat va boshqa asosiy yo'nalishlar qamrab olingan.

Konstitutsianing qabul qilinishi O'zbekistonning xalqaro huquqiy maydonda to'liq huquqli, demokratik va mustaqil davlat sifatida tan olinishi uchun mustahkam huquqiy asos bo'ldi. U nafaqat yangi jamiyat qurish, balki huquqiy davlat barpo etish yo'lida bosh yo'riqnomalar bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, globallashuv davridagi talablar, xalqimizning yangi intilishlari Konstitutsianing zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirilishini taqozo etdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan bu konstitutsiyaviy islohotlar natijasida 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumi o'tkazildi.

Mazkur referendum natijasiga ko'ra, O'zbekiston Konstitutsiyasining 65 foizi yangilandi. Moddalar soni 128 tadan 155 taga oshirildi, 6 ta yangi bob va o'nlab ijtimoiy-huquqiy me'yorlar kiritildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya quyidagi yo'nalishlarda tub islohotlarni o'z ichiga oldi:

- Inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirish
- Ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash
- Davlat hokimiyatining bo'linishi
- Fuqarolik jamiyatining rivoji
- Atrof-muhitni muhofaza qilish

Shu tariqa, yangi Konstitutsiya zamonaviy O'zbekistonning bugungi taraqqiyoti va kelajak istiqbolini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi poydevor bo'lib xizmat qila boshladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – bu xalqimizning siyosiy irodasi, milliy g'ururi va taraqqiyotga intilishining konstitutsiyaviy ifodasi bo'lib, mustaqillikni mustahkamlash, inson huquqlarini kafolatlash va demokratik jamiyat barpo etish yo'lidagi eng muhim

yutuqlarimizdan biridir. Har bir fuqaroning Konstitutsiyani hurmat qilishi va uning ruhiga sodiq bo'lishi, mamlakat taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "To'la ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda.³"

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligi munosabati bilan bayonoti. 2022-yil 7-dekabr. <https://president.uz/>
2. Konstitutsiyaviy huquq darslik Husanov O .T. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024. – 544 bet.
3. Sh.M. Mirziyoyev. 2022-yil 7-dekabr Konstitutsyaning 30 yilligi munosabati bilan so'zlagan bayonoti.

³